Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



HUDUDLARDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TAHLILI

**Butaboyev Maxamadjon**

Farg'ona politexnika instituti
Iqtisodiyot kafedrasi professori, i.f.d.

**Gaibnazarova Zumrat Talatovna**

University of science and technologies
Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.d.,
professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonda va O'zbekistonda issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi, ekologik vaziyat hamda uning oqibatlarini bayon etilgan. Shuningdek, hududlarda yashil iqtisodiyotni yanada rivojlantirish masalalari bo'yicha zarur taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: issiqxona gazlari, atmosfera, iqlim o'zgarishi, global isish, ekologik xavf-xatar, yashil makon.

Abstract: This article describes greenhouse gas emissions into the atmosphere in the world and in Uzbekistan, the environmental situation and its consequences. The necessary proposals and recommendations on the further development of the green economy in the regions have also been developed.

Key words: greenhouse gases, atmosphere, climate change, global warming, environmental risk, green spaces.

Аннотация: В данной статье описаны выбросы парниковых газов в атмосферу в мире и в Узбекистане, экологическая ситуация и ее последствия. Также разработаны необходимые предложения и рекомендации по вопросам дальнейшего развития зеленой экономики в регионах.

Ключевые слова: парниковые газы, атмосфера, изменение климата, глобальное потепление, экологический риск, зеленые насаждения.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarishning normallashtirish, yashil energetika tizimlariga investitsiyalar kiritish, ko'mirga va mazutga ishlaydigan elektr stansiyalarini bosqichma-bosqich to'xtatish, muqobil energiya iste'moliga o'tish, shamol, quyosh energiya manbalaridan to'la foydalanishni rag'batlantirish hamda "yashil" texnologiyalardan keng foydalanish, energiya samaradorligini oshirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Iqlim o'zgarishi eng katta ekologik xavf-xatar tug'dirmoqda. Shu bilan birgalikda global qazib olinayotgan yoqilg'i (ko'mir yiliga 32 milliard tonna) va neft mahsulotlaridan (Osiyo davlatlarida 0.7 milliard tonna, gaz 221 milliard kub metr) foydalanish hozirgi vaqtda iqlimni 4 °C dan 6 °C gacha ko'tarilishi mumkin. Bu esa oziq-ovqat ishlab chiqarish, inson salomatligi va biologik xilma-xillik uchun fojiali halokatlarni keltirib chiqaradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijda F. Rals “Зеленая экономика как устойчивая развития общество без ущерба экологии” asarida yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini yoritib bergan. Iqlim o'zgarishlari va uning oqibatlarini, energetika tizimi va uni islox qilish, yashil energiya resurslaridan foydalanishning ahamiyati to'g'risida batafsil to'xtaladi. Shu bilan birgalikda, is gazlarining atmosferaga chiqarilishi va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatlarini yoritib beradi. Xulosa qilib aytganda bu asarda avtor Xitoy va yevropa davlatlari tajribasidan foydalanadi ^[1]. O'zbekistonda A. Vaxobov “Yashil iqtisodiyot” darsligida mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalarini tahlil qilib, Amerika va Yevropa tajribalaridan foydalanishni tavsiya qiladi. Iqlim o'zgarishining O'zbekiston uchun oqibatlarini yoritib, fermer va dehqonchilik xo'jaliklarida hosilning 30 foizgacha yo'qotilishini ta'kidlab o'tadi ^[2]. N. Maxmudov “Ekologiya” asarida yashil iqtisodiyotga o'tish jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi va uning uchun O'zbekistonda imkoniyatlar mavjud, degan fikrni olg'a suradi ^[3].

Chorvachilikda, parrandachilikda va o'simlik chiqindilarini qayta ishlash natijasida olingan biogaz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Ularni qayta ishlash natijasida hosil qilingan tabiiy mineral o'g'itlardan foydalanish tuproq unumdorligi oshiradi. Shu bilan birgalikda, sun'iy intellekt yordamida yerni melorativ holatini, ya'ni sho'rlanish, zahlanish, quriqlanish, yemirilganlik darajalari o'rganiladi va “tashhez” qo'yadi ^[4]. O'zbekistonda har yili tuproq quriqshab, yemirilish oqibatida 15 ming gektar yer ishdan chiqmoqda.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va global isish, tuproq tabiiy unumdorligini pasayib ketayotganligi, bioxilma-xillikni kamayib ketayotganligi, tabiiy kapital zaxiralarining tugab borayotganligi, ichimlik suvi tanqisligi, atrof-muhitni ifloslanishi, oziq-ovqat inqirozi, energiya muammosi, qayta tiklanadigan energiya iste'moliga ommaviy o'tish, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxonalar gazlari, transport vositalaridan chiqayotgan CO₂ uglerod oksidi gazlari normadan yuqoriligi, avtomobil parklarining elektrlashtirish va boshqalar asosiy ekologik muammolar hisoblandi ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida statistik ma'lumotlar tahlili, analiz va sintez usullari, dialektik materializm kabi instrumentlardan foydalangan holda Farg'ona viloyatining joriy ekologik holati tahlil qilingan va tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqlim o'zgarishi avlodlararo yuk bo'lib, O'zbekiston kelajak avlod oldidagi majburiyatini oshirishi lozim, chunki global energiyaga talab 2020-yildagi 20 TVt 2040 yilga kelib 25 TVt ga oshadi va 2050-yilga kelib hozirgi (2023-yil) darajadan ikki barobar ko'payadi. O'zbekiston past uglerodli, iqlimga chidamli energetika infratuzilmasiga erishish uchun yashil moliya portfelini taklif qilishi kerak. Agar hech qanday moliyaviy chora ko'rilmasa qazib olinayotgan neft, mazut, gaz va ko'mirlardan ishlab chiqarishda foydalanishni kengaytirsak (foydalanishni davom ettirsak) atmosferadagi CO₂ konsentratsiyasini yuqoriligi sababli 2050-yilga kelib 2,5 ° C dan 4,5° S gacha global isishga olib keladi. Iqlim o'zgarishi natijasida mamlakatimiz 20 foiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yo'qotadi.

Hozirgi vaqtda yer osti (O'zbekiston) qazilma boyliklarini qazib olishda 60 million tonna chiqindilar atrof-muhitga tashlab yuboriladi, konlarni portlatishda 250 ming tonna chang, 10 ming tonna zaharli gazlar shamolning tezligi sekundiga 15-20 metr bo'lgani uchun chang va zaharli gazlar 70-120 km.gacha uchib borib atrof-muhitni zaharlamoqda.

Bizga ma'lumki, O'zbekistonda energiya ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Uning ekologik yukini kamaytirish uchun ko'mirni iloji boricha texnologiya asosida yoqish zarur, lekin hozir ham rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan eski usullar saqlanib qolmoqda, bu esa maqsadga mos kelmaydi.

O'zbekistonda yiliga 320 million tonna uglerod chiqindilari atmosfera havosini zaharlamoqda. Har bir fuqaroga 12,2 ming tonna uglerod chiqindisi to'g'ri keladi, bu Yevropa fuqarolarga nisbatan 14 % ga ko'p demakdir.

Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 10-iyun kuni e'lon qilgan ma'lumotiga ko'ra respublikada bir yilda atmosfera havosiga 909 ming tonna turli xil ifloslantiruvchi moddalardan iborat tashlamalar tashlangan.

Bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 43,8 ming (4,6 %) hamda 2020-yilga nisbatan 15,4 ming (2 %) tonnaga kamayganligini ko'rish mumkin. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasida har yili sanoat tashlamalarini 1 foizga kamaytirish belgilangan. Birgina, o'tgan 2021-yil davomida jami 131 ta korxonada 230 ta chang-gaz tozalash uskunolari modernizatsiya qilinib, 22 ta korxonada 60 ta yangi uskunalar o'rnatilgan. Ushbu tadbirlar uchun jami 33,7 mlrd.so'm mablag' sarflangan.

Ayniqsa, ushbu tadbirlar Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida keng ko'lamda amalga oshirilganligi bois ushbu hududlardagi tashlamalar miqdori oldingi yilga nisbatan mos ravishda 6,5, 13,7, 25,8, 5,0, 3,5 va 4,7 ming tonnaga kamaygan.



Viloyatda hozirgi kunda 933 ta maktab, 205 ta kollej, 2500 ta maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud. Yilning sovuq mavsumlarida ularda mavjud xonalarni isitishda yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalaniladi. Agar 1 ta maktabda o'rtacha hisobda 6 ta mini kotyoldan foydalanilsa ko'mirni yonishi natijasida 1 ta maktabdan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar quyidagilardan tashkil topadi.

1 ta pech uchun sarf bo'ladigan gaz sarfi – 1,4 nm³/soatga teng.

Gazning sekunddagi sarfi 1,4/3600 = 0,000389 m³/sek.

Kichik yonish-pechlari uchun 1000 m³ gaz yonganda atmosferaga quyidagi miqdordagi tashlamalar chiqariladi: ugleroda oksidlari – 12,9 kg, azot oksidlari (azota (II)-oksidga nisbatan) – 2,15 kg, oltingugurt dioksid – 0,0037 kg.

Bunda quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi:

$$M_{SO} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 \text{ g/sek.}$$

$$M_{NO} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 \text{ g/sek.}$$

$$M_{SO} = 0,0037 * 0,000389 = 0,000000 \text{ g/sek.}$$

$$M_{SO} = 0,00502 * (3600 * 3,6 * 103) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 \text{ t/yil.}$$

$$M_{NO} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 \text{ t/yil.}$$

$$M_{SO} = 0,000000 \text{ t/yil.}$$

Oltita kotyol uchun:

$$M_{SO} = 6 * 0,00502 = 0,03012 \text{ g/sek.}$$

$$M_{NO} = 6 * 0,000836 = 0,005016 \text{ g/sek.}$$

$$M_{NO} = 6 * 0,000836 = 0,005016 \text{ g/sek.}$$

$$M_{NO} = 6 * 0,0108 = 0,0648 \text{ t/yil.}$$

Viloyat bo'yicha 933 ta maktabdan gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi:

$$M_{SO} = 933 * 0,03012 \text{ t/yil} = 28,10196 \text{ t/yil} = 28101,96 \text{ kg/yil}$$

$$M_{NO} = 933 * 0,005016 \text{ t/yil} = 4,689948 \text{ t/yil} = 4689,948 \text{ kg/yil}$$

2. Agar yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi.

Ko'mir va o'tin sarfi 3kg/soat. Yillik sarfi $V = 3 * 24 * 150 = 10800 \text{ kg/yil} = 10,8 \text{ t/yil}$ ni tashkil qiladi.

Kul:

$$933 * 1,4856 \text{ t/yil} = 1386 \text{ t/yil}$$

Is gazi:

$$M_{SO} = 933 * 0,2094 \text{ t/yil} = 195,5702 \text{ t/yil} = 195570,2 \text{ kg/yil}$$

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):

$$M_{NO} = 933 * 0,1074 \text{ t/yil} = 100,2242 \text{ t/yil}$$

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):

$$M = 933 * 0,17 \text{ t/yil} = 158,61 \text{ t/yil}$$

Viloyat bo'yicha 205 ta kollejda gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi. Har bir kollejda o'rtacha 16 tadan minikotel ishlatiladi:

$$M_{SO} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 \text{ g/sek.}$$

$$M_{NO} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 \text{ g/sek.}$$

$$M_{SO} = 0,0037 * 0,000389 = 0,000000 \text{ g/sek.}$$

$$M_{SO} = 0,00502 * (3600 * 3,6 * 103) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 \text{ t/yil.}$$

$$M_{NO} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 \text{ t/yil.}$$

$$M_{SO} = 0,000000 \text{ t/god.}$$

16 ta kotyol uchun:

$$M_{SO} = 16 * 0,0651 = 1,0416 \text{ t/yil}$$

$$M_{NO} = 16 * 0,0108 = 0,1728 \text{ t/yil.}$$

205 ta kollejda gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi.

$$M_{SO} = 205 * 1,0416 \text{ t/yil} = 213,528 \text{ t/yil}$$

$$M_{NO} = 205 * 0,1728 \text{ t/yil} = 35,424 \text{ t/yil}$$

Agar yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi.

1 ta minikotelda qattiq yoqilgi uchun o'rnatiladigan me'yorlar:

Kul chikindisi

$$M_{tv} = A * V * \eta * (1 - \eta) \text{ (t/yil, g/sek)}$$

$$M = 16 * 13,1 * 0,0035 * (1 - 0,5) = 0,3668 \text{ t/yil}$$

$$\text{yoki } 0,3668 / 3600 * 3,6 * 10^3 = 0,0283 \text{ g/sek}$$

$$Q = (0,0283 / 0,106) * 103 = 266,981 \text{ mg/m}^3$$

$$205 \text{ ta kollejda } 205 * 16 * 0,3668 = 1209,5 \text{ t/yil kul}$$

**Uglerod monooksid tashlamalari:**

$$M=205 \times 16 \times 0,05174 = 170,2 \text{ t/yil}$$

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):

$$M=205 \times 16 \times 0,0265 = 87 \text{ t/yil}$$

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):

$$M=205 \times 16 \times 0,0416 = 138 \text{ t/yil}$$

2500 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida hosil bo'layotgan chiqindilar miqdori quyida keltirilgan

Ushbu muassasalarda o'rtacha 4 tadan minikotellardan foydalaniladi. Yoqilgi sifatida gazdan foydalanilganda 2500 ta MTM lar atmosferaga tashlanayotgan tashlamalar miqdori quyidagicha:

$$M_{SO} = 2500 \times 4 \times 0,0651 = 651 \text{ t/yil}$$

$$M_{NO} = 2500 \times 4 \times 0,0108 = 108 \text{ t/yil}$$

Ko'mirdan foydalanilganda quyidagi tashlamalar hosil bo'ladi:

Kul:

$$2500 \times 4 \times 0,2476 = 2476 \text{ t/yil}$$

Uglerod monooksid tashlamalari:

$$M_{SO} = 2500 \times 0,001 \times 3,25 \times 10,8 \times (1 - 0,5/100) = 87,311 \text{ t/yil}$$

4 ta kotyoldan chiqayotgan tashlama:

$$M_{SO} = 2500 \times 4 \times 0,0349 = 349 \text{ t/yil}$$

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):

$$M_{NO} = 2500 \times 4 \times 0,0179 = 179 \text{ t/yil}$$

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):

$$M=2500 \times 4 \times 0,02801 = 280,1 \text{ t/yil}$$

Ushbu muassasalarda gazdan foydalanilganda hosil bo'layotgan tashlamalarning umumiy miqdori

$$M_{SO} = 364 + 213,2 + 651 = 1228,2 \text{ t/yil}$$

$$M_{NO} = 60,45 + 34,85 + 108 = 203,3 \text{ t/yil}$$

Ko'mirdan foydalanilgandagi quyidagicha hosil bo'ladigan tashlamalar:

Kul:

$$1386 + 1209,5 + 2476 = 5071,5 \text{ t/yil}$$

Is gazi:

$$M_{SO} = 195 + 170,2 + 87,311 = 452,511 \text{ t/yil}$$

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):

$$M_{NO} = 100 + 87 + 179 = 366 \text{ t/yil}$$

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):

$$M=158,6 + 138 + 280,1 = 576,7 \text{ t/yil}$$

Shu bilan bir qatorda, Marg'ilon shahrida hozirgi kunda 741ta umumiy ovqatlanish shohobchalari, 801 ta somsaxonalar, 683ta nonvoyxonalar va 506 ta kabobxonalar, jami 2731 ta obyekt faoliyat olib bormoqda. Hosil bo'ladigan tashlamalarning faqatgina Marg'ilon shahridagi umumiy ovqatlanish shohobchalari, somsaxonalar, nonvoyxonalar va kabobxonalar misolida oladigan bo'lsak, ularning hosil bo'lish miqdori quyidagicha:

Gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo'ladi.

$$M_{SO} = 2731 \times 1,04 \text{ t/yil} = 2840,24 \text{ t/yil}$$

$$M_{NO} = 2731 \times 0,17 \text{ t/yil} = 464,27 \text{ t/yil}$$

Agar yoqilgi sifatida ko'mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo'ladi.

Kul chiqindisi

$$2731 \text{ ta obyekt} \times 2731 \times 16 \times 0,3668 = 16028 \text{ t/yil kul}$$

Uglerod monooksid tashlamalari:

$$M=2731 \times 16 \times 0,05174 = 2261 \text{ t/yil}$$

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan):

$$M=2731 \times 16 \times 0,0265 = 1158 \text{ t/yil}$$

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan):

$$M=2731 \times 16 \times 0,0416 = 1818 \text{ t/yil}$$

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyatda 933 ta maktab faoliyat olib boradi va qishki mavsumda bir yilda 4.2 tonna ko'mir yoqadi. Viloyat bo'yicha 933 ta maktablarda 41 ming tonna ko'mir yoqiladi. Bir yilda viloyat maktablaridan 807 tonna is gazlari chiqariladi va 1.5 ming tonna kul changgi chiqadi.

Viloyatda 205 ta kollejlarda faoliyat yuritadi va qish mavsumida har bir kollej 3.8 tonnadan ko'mir yoqadi. Ko'mir yoqish natijasida 218 tonnaga yaqin is gazlari va 311 tonna kul chiqindisi chiqadi.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat shaklda 3270 ta bo'lib, qishki mavsumda har biri o'rtacha 3 tonna ko'mir yonilg'isidan foydalanadi. Natijada ekologiyaga 2750 tonnaga yaqin is gazi va 3500 tonnaga yaqin kul ajralib chiqadi ^[6].

Agar viloyatimizda xalq ta'limi muassasalarini (maktab, kollej, maktabgacha ta'lim muassasalarini) qayta tiklanuvchi (yashil energiya resurslaridan) foydalanishga o'tkazilsa, atrof-muhitni samarali muhofaza qilgan bo'lardik. Buning ustiga sarflanadigan moliyaviy xarajatlardan katta tejamkorlikka erishgan bo'lardik, ya'ni ham iqtisodiy samaradorlik, ham ekologik xavfsizlikni ta'minlagan bo'lardik.

Hozirda mamlakatimizda "Yashil makon" milliy loyihasi ishlab chiqildi va bu loyihada yiliga 200 million tupdan ortiq daraxt va ko'chatlarni ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 % dan 30 % gacha oshirish rejalashtirildi. Har mavsumda O'zbekistonda 2-noyabrdan 10-dekabrgacha daraxt ekish bo'yicha "Dolzarb 40 kunlik" e'lon qilindi. Hududlar kesimida Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 16 million tupdan, Andijon, Buxoro, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 15 million tupdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida esa 14 million tupdan ko'chat ekish rejalashtirildi. Loyiha bo'yicha muassasalar hovlisi, mahallalarga, yo'l va dala chetlariga ham daraxtlar ekilishi belgilandi.

Mutaxassislarning tavsiyalariga asosan, hududlarda ekish uchun 27 turdagi daraxt ko'chatlarini ekish taklif etildi. Masalan, kashtan, oqqayin, eman, yapon saforasi, shumtol, qayrag'och, pavloniya, terak, akatsiya, chinor, tut, jiyda, yong'oq, behi, olma, uzum va virtin archasi bizning mintaqalar uchun mosdir. Har bir viloyatning iqlimi va tuproq tarkibi inobatga olinib, qaysi ko'chat unib, ko'karib ketishiga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, Farg'ona viloyati hokimligi tumanlar kesimida, mahallalarda, dala chekkalariga tutlar, daraxtlar, archalar, chinor va mevali daraxtlarni xashar yo'li bilan 1 mln tupi o'tkazilsa, 200 ming tonna SO₂ zaharli gazlarni zararsizlantirish mumkin, O'zbekiston bo'yicha esa 20 mln tupi o'tkazilsa, 4-5 mln tonna uglerod gazlari zararsizlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ф. Ральс. Зелёная экономика как устойчивого развития общество без ущерба экологии. Москва. 2018. – 418 с.
2. Vaxabov A. V., Yashil iqtisodiyot. Darslik. Toshkent. – "Universitet". 2020.
3. N. M. Maxmudov, Ekologiya. – Darslik. 2019.
4. Иминов Т. К., Вахабов А. В., Тешабоев Т. З., Бутабоев М. Т. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. – Т.: "Aloqachi", 2019. – 480 с.
5. Vaxabov A. V., Xajibakiev Sh. X. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni. "Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent. "Universitet". 2018. – 4-15 b.
6. Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi muassasalarni 2022– 2023-yillar kuz qish mavsumida ko'mir yoqilg'isi ta'minoti to'g'risidagi ma'lumoti. – 7-8 betlar.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.